

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI**

HAZRATOVA TO‘LG‘ANOY YASHIN QIZI

**TAJRIBALAR VA NAZARIY USULLAR ORQALI PAXTA
IPLARINING NOCHIZIQ MEXANIK XUSUSIYATLARINI ANIQLASH**

**05.06.01-To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari
materialshunosligi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi
avtoreferatining mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**
**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
in technical sciences**

Hazratova To‘lg‘anoʻy Yashin qizi

Tajribalar va nazariy usullar orqali paxta iplarining noxiziq mexanik
xususiyatlarini aniqlash 3

Ҳазратова Тўлғаной Яшин қизи

Экспериментальное и теоретическое определение нелинейных
механических характеристик хлопчатобумажных пряж 23

Khazratova Tulganoy Yashin qizi

Experimental and theoretical determination of nonlinear mechanical
properties of cotton yarns. 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MEXANIKA VA INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI
INSTITUTI**

HAZRATOVA TO‘LG‘ANOY YASHIN QIZI

**TAJRIBALAR VA NAZARIY USULLAR ORQALI PAXTA
IPLARINING NOCHIZIQ MEXANIK XUSUSIYATLARINI ANIQLASH**

**05.06.01-To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari
materialshunosligi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/T2695 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (reyuzme)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismoilova Sabida Isroilovna

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich

texnika fanlari doktori, professor

Valiyeva Zulfiya Faxriddinovna

texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025 yil «15» dekabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5,.Tel.: (+99871) 253-06-06, faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: titlp_info@edu.uz) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona.

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (253-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5,.Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «2» dekabr kuni tarqatildi.

(2025 yil «2» dekabrda № 253 raqamli reestr bayonnomasi).

X.H. Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

t.f.d., professor

A.Z. Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi kotibi,

t.f.d., professor

F.U.Nigmatova

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy darajalar

beruvchi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,

t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda paxta tolasi to‘qimachilik sanoatining asosiy mahsulotlaridan hisoblanib, tolalardan ip olishda energiya-resurs tejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida to‘qimachilik bozori hajmi 2024 yilda 1,840 trillion dollarni tashkil etdi. 2025 yilda bu ko‘rsatkich 1,976 trillion dollarga, 2033 yilga kelib taxminan 3,767 trillion dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa 2025-2033 yillar prognoz davrida yillik 7,43 % o‘sishni qayd etadi. To‘qimachilik sanoatini rivojlantirish, nafaqat korxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlash, balki ishlatilayotgan asbob-uskunalaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ko‘rimlilikini oshirish va ularni jahon bozorida raqobatbardoshligini ta‘minlash bilan bog‘liq. Shu jihatdan korxonalarda xom-ashyodan samarali foydalanish, mahsulotning mustahkamlik xossalarini saqlagan holda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish masalalarini hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Jahonda to‘qimachilik tolalari va iplarning deformatsiyalanish xususiyatlarini aniqlash, ularning mustahkamlik va uzilish jarayonlarini matematik modellashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda iplarning fizik-mexanik xususiyatlarini baholashda eksperimental ma‘lumotlarni matematik modellar bilan integratsiya qilish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, yigirilgan ip ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va texnologik jarayonlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan me‘yoriy parametrlarni aniqlash masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda bugungi kunda paxta tolalaridan yuqori sifatli iplar va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda, ilmiy asoslangan yangi texnologiyalarni yaratish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2023-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan «.. to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish...»² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, to‘qimachilik iplarining mexanik xossalarini aniqlash, to‘qimachilik mahsulotlarining mustahkamligini hisoblash usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi», 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi, 2025 yil 16 yanvardagi PF-6-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmonlari

¹ <https://uzts.uz/>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 16 yanvardagi PF-6-son «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni

hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. To'qimachilik iplarining mustahkamlik muammosini tadqiq etish bilan horijda ko'plab olimlar shug'ullanishgan va tajribalar natijalari asosida to'qimachilik iplarining mustahkamligini nazariy yo'llar bilan aniqlash usullarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar L.Eyler, V.E.Veber, A.P.Minakov, H.A.Raxmatulin, M.T.O'razboev, I.I.Migushov, V.P.Sherbakov, A.N.Solovyov va boshqalar tomonidan o'tkazilgan.

Respublikamizda paxta iplarining dinamik kuchlar ta'sirida tebranishlari parametrlarini aniqlash, paxta ipining noxiziq deformatsiyalanish qonuniyatini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar B.M.Mardonov, M.Ergashov, Q.G'.G'ofurov, K.S.Sultanov, S.I.Ismoilova va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida faqat muammolarning bir qismini qamrab olgan bo'lib, hozirgi kunda to'qimachilik sanoatining texnologik jarayonlarida iplarning uzilish muammosi o'z yechimini to'liq topmagan. Paxta iplarining mustahkamlik muammolarini yechish, ularning mustahkamlik nazariyasini takomillashtirish, iplarning turlari va texnologik jarayondagi tezliklarini, baza uzunliklarini inobatga olgan holda paxta ipining mustahkamligini aniqlash va baholash usullarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti «Mexanika va inshootlarning seysmik mustahkamligi» instituti ilmiy-tadqiqot dasturlarining №F3-2020092310 «To'qimachilik dastgohlaridagi zamonaviy progressiv uzilish nazariyasini yaratish» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxta iplarining cho'zilish jarayonidagi dastlabki taranglik, cho'zish bazasi va harakatlanish tezliklarini inobatga olgan holda, ularning mustahkamligini aniqlash va baholash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turli xil texnologik usullarda olingan paxta iplarining mustahkamliklarini har xil harakatlanish tezliklarida aniqlash;

paxta iplarining texnologik jarayonlarda dastlabki taranglik kuchi, deformatsiyalanish tezligi va ipni cho'zish uzunligini inobatga olgan holda tajribalar o'tkazish va mustahkamligini aniqlashni takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqish;

olingan tajriba natijalarini tahlil qilish va shu asosida ipning ishlab chiqarish usullari, deformatsiyalanish tezliklari va ipni cho'zish bazasiga bog'liq holda paxta iplarining dinamik xususiyatlari va mustahkamlik parametrlarini aniqlash;

paxta iplarining uzilishgacha cho'zilish jarayonida ularning noxiziq deformatsiyalanishi va uzilishini ishlab chiqilgan matematik modeli asosida uning

deformatsiyalanishi va dastlabki taranglikni hisobga olgan holda mustahkamligini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida karda va qayta tarash sistemasida, halqali yigirish usulida olingan turli chiziqiy zichlikdagi paxta iplari hamda to'qimachilik ishlab chiqarish texnologik jarayonlarida ipning harakatlanish tezligi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida turli harakat tezliklari va turli cho'zish baza uzunliklarida, dastlabki taranglik kuchini hisobga olgan hamda olmagan holda karda va qayta tarash sistemasida, halqali yigirish usulida olingan paxta iplarining mustahkamlik parametrlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida paxta iplarining mexanik xususiyatlarini «Tenso-Master» uzish mashinasida tajribalar orqali aniqlash hamda ipning deformatsiya parametrlarini nohiziq deformatsiyalanish qonuniyati asosida aniqlash va differensial tenglamalarni sonli yechishning chekli ayirmalar usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta iplarini uzilishgacha cho'zishdagi deformatsiyalanish va uzilishini tahlil qilish natijasida, Eyring modeliga asoslangan ip cho'zilishining fizik nohiziq xususiyatlarini aniqlovchi matematik model ishlab chiqilgan;

harakat tezligi, qisqichlar orasidagi masofa uzunligi va dastlabki taranglik kuchiga bog'liq ravishda iplarning deformatsiya modullari o'zgarishida kuzatilgan "botiqlik" hodisasi ro'y berishi va bu hodisaning deformatsiya tezligiga bog'liqligi aniqlangan;

iplarning nohiziq deformatsiyalanish va uzilish jarayonlarining, ipning mexanik hamda geometrik xarakteristikalariga bog'liq ravishda ishlab chiqilgan matematik modelning nohiziq parametr qiymatlari aniqlangan;

ip cho'zilganda unda yuzaga keladigan nohiziq to'lqin jarayonlari va rezonans hodisalarini tahlil qilish asosida ipning uzunligi bo'ylab kuchlanishlarning notekis taqsimlanishi natijasida yuzaga keladigan o'zgaruvchan chastotali tebranishlar va ipning uzilish bog'lanishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

karda va qayta tarash sistemasida, halqali yigirish usulida olingan paxta iplarini turli xil tezliklarga bog'liq holda mustahkamliklarining o'zgarishi aniqlangan;

paxta iplarining yangi deformatsiya xususiyatlari qiymatlari aniqlangan;

turli xil chiziqiy zichlikdagi paxta iplarining texnologik jarayonlarda harakat tezliklari, baza uzunligi, dastlabki taranglik kuchini inobatga olgan holda kritik tezliklari aniqlangan, bunda deformatsiyalanish tezligi kritik tezlik qiymatidan oshsa mustahkamlik intensiv ravishda kamayishi ko'rsatilgan;

ipning deformatsiya moduli va harakat tezligiga bog'liq bo'lgan to'lqin jarayonining parametrlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sinovdan o'tgan matematik usullarga asoslanganligi, olingan nazariy natijalar amalga oshirilgan eksperimental va amalda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari bilan solishtirilganligi hamda boshqa olimlar tomonidan olingan ma'lumotlar bilan taqqoslab tekshirilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxta iplarining dinamik kuchlar ta'sirida cho'zilishida ularning noxiziq mustahkamlik nazariyasi takomillashtirilganligi va ushbu nazariyadan barcha paxta iplari mustahkamliklarini baholashda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turli xil texnologik usullarda olingan paxta iplarining texnologik jarayonlaridagi harakatlanish tezliklarini inobatga olgan holda uzilishini kamaytirishga olib keluvchi deformatsion usul yaratilishi hamda ushbu usul qo'llanilishi natijasida to'qimachilik dastgohlarining to'xtab qolishini kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. To'qimachilik sanoati texnologik jarayonlarida ipning deformatsiyalanish tezligi va dastlabki taranglik kuchini hisobga olib paxta iplarining mustahkamlik nazariyasini rivojlantirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

paxta ipining mustahkamligini aniqlash va baholashning takomillashtirilgan usuli «O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasi tasarrufidagi «FERGANA GLOBAL TEXTILE» va «FAZO GROUP» MCHJ korxonalarida joriy etilgan. («O'zto'qimachilik sanoati» uyushmasining 2025 yil 26 may №03/25-1116-son ma'lumotnomasi). Natijada, paxta ipida uzilishlar soni kamayishi hisobiga iqtisodiy samaradorlik 21% ga oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, shuningdek, tadqiqot ob'yekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga qo'llagan muassasalar, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning «**Ishlab chiqilgan matematik model asosida sonli usullar yordamida paxta ipining noxiziq deformatsiyalanish va uzilish jarayoning kompleks tadqiqi**» deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya bo'yicha adabiyotlar sharhi keltirilgan, shuningdek, masalaning qo'yilishi, uning yechish usullari va paxta ipining uzilguncha cho'zilishining deformatsiya holatini hisoblash algoritmi bayon

etilgan. Bu hisob-kitoblar ipning mustahkamligi bo'yicha eksperimental va nazariy tadqiqotlar majmuasi asosida "Tenso Master" qurilmasida amalga oshirilgan. Ushbu ishda deformatsiyalanish tezligi, bazaviy uzunlik va ipning dastlabki tarangligini $F(\varepsilon)$ funksiyaga ta'sirini eksperimental aniqlash bajarildi.

Iplarni uzilishgacha cho'zish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijalari asosida uch xil turdagi iplar uchun turli cho'zilish tezliklarida ushbu turdagi iplarning deformatsiyalanish tezligiga bog'liq holda deformatsion xarakteristikalari aniqlandi. Paxta iplarining deformatsion xususiyatlarini ma'lum bo'lgan fizik nohiziq elastik-qovushqoq-plastik model asosida aniqlaymiz:

$$\frac{d\sigma}{E_D(\varepsilon)dt} + \mu(\varepsilon)\frac{\sigma}{E_S(\varepsilon)} = \frac{d\varepsilon}{dt} + \mu(\varepsilon)\varepsilon \quad (1)$$

bu yerda: σ – bo'ylama tortuvchi kuchlanish; ε – ipni cho'zilishidagi bo'ylama deformatsiya; t – vaqt; $E_D(\varepsilon)$ – ip deformatsiyasining $\varepsilon_g = d\varepsilon/dt \rightarrow \infty$ deformatsiyalanish tezligidagi o'zgaruvchan dinamik moduli (nohiziq funksiya); $E_S(\varepsilon)$ – ip deformatsiyasining statikga (kvazistatik) yaqin bo'lgan $\varepsilon_g = d\varepsilon/dt \rightarrow 0$ deformatsiyalanish tezligidagi o'zgaruvchan statik moduli; $\mu(\varepsilon)$ – yopishqoqlik koeffitsienti $\eta(\varepsilon)$ ga bog'liq bo'lgan ipning o'zgaruvchan hajmiy qayishqoqlik parametri (ichki ishqalanish).

$$\mu(\varepsilon) = \frac{E_D(\varepsilon)E_S(\varepsilon)}{(E_D(\varepsilon) - E_S(\varepsilon))\eta(\varepsilon)} \quad (2)$$

Nohiziq qovushqoq-elastik-plastik ipda bo'ylama cho'zuvchi kuchning tarqalishi masalasi ko'rib chiqilgan, uning cho'zilishdagi xatti-harakati (1) tenglama bilan tavsiflanadi.

Cho'zuvchi yuk ta'sirida ip uchun Langrange koordinatalarida ip o'qi bo'ylab bir o'lchovli ip zarrasining harakati tenglamalari quyidagi ko'rinishga ega:

$$\rho_0 \frac{\partial \mathcal{G}}{\partial t} - \frac{\partial \sigma}{\partial x} = 0, \quad \frac{\partial \mathcal{G}}{\partial x} - \frac{\partial \varepsilon}{\partial t} = 0 \quad (3)$$

bu yerda \mathcal{G} - ip qismlarining tezligi, x - ipning o'q bo'ylab fazoviy koordinatasi, ρ_0 - ipning boshlang'ich zichligi.

Tenglamalarni yechish uchun xarakteristika metodi qo'llanilib, xarakteristik munosabatlar olingandan so'ng unga chekli ayirmalar usuli qo'llanildi va sonli usullar bilan yechildi. Shartlarni inobatga olgan holda, ipda paydo bo'ladigan to'lqin frontlari kuchsiz ekanligini va shu bois ularning tarqalishi natijasida ip tuzilishi jiddiy o'zgarishlarga uchramasligini taxmin qilish mumkin. Bunday holatda, tenglamalarning xarakteristikalari chiziqli bo'lib qolaveradi, xarakteristik munosabatlar esa nohiziq bo'ladi.

Ilgari ishlab chiqilgan paxta iplarining uzilishgacha cho‘zilishida deformatsiyalanishi va uzilishining nohiziq nazariyasi asosida sonli usullar yordamida nazariy tadqiq qilish uchun matematik model ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan algoritm asosida FORTRAN-2005 algoritmik tilidan foydalanib masalani EHMda yechish dasturi tuzildi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2024-yilda DGU 41720 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Dissertatsiyaning «**Texnologik jarayonlarda ipning harakat tezligi, deformatsiyalanishning bazaviy uzunligi va dastlabki taranglikni ipning mustahkamlik va deformatsiyalanish xarakteristikalariga ta’sirini eksperimental tadqiq qilish**» deb nomlangan ikkinchi bobida karda va qayta tarash sistemasi halqali yigirish usulida olingan paxta iplarining turli harakat tezliklarida mustahkamligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba natijalari keltirilgan. Ipning uzilishidan oldingi mexanik xususiyatlariga deformatsiya tezligi va bazaviy cho‘zilish uzunligining ta’siri o‘rganildi. Olingan diagrammalar asosida deformatsion xususiyatlarning (jumladan deformatsiya moduli) tezlikka, deformatsiyaga va dastlabki taranglikka bog‘liqligi aniqlandi. Yuklash rejimiga qarab kritik uzilish kuchining 15-20% oralig‘ida o‘zgarishi kuzatildi. Shuningdek, statik va dinamik deformatsiya modullarining qiymatlari hisoblandi. Bu esa ipning nohiziq deformatsiyalanishi va uzilishini raqamli modellashtirish uchun parametrlarni aniqlash imkonini berdi.

Karda va qayta tarash sistemasida halqali yigirish usulida olingan $T=20$ va $T=30$ teksli iplar O‘zRes FA M.T.O‘rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida joylashgan «Tenso Master» uzish mashinasida dastlabki taranglik bilan va dastlabki tarangliksiz uzilguncha cho‘zilib tajribalar o‘tkazildi. Iplarning mustahkamligini aniqlashda harakat tezliklarini $\mathcal{G} = 100 \div 5000$ mm/min oraliqda o‘zgartirib, bazaviy uzunlikni $L_0 = 100 \div 800$ mm gacha o‘zgartirib tajribalar o‘tkazildi, bunda ipning cho‘zilishdagi deformatsiyalanish tezligi (4) formulaga ko‘ra $\varepsilon_{\mathcal{G}} = 0,002 \text{ s}^{-1}$ dan $\varepsilon_{\mathcal{G}} = 0,833 \text{ s}^{-1}$ gacha o‘zgarishi kuzatildi (1-jadval).

$$\varepsilon_{\mathcal{G}} = \frac{d\varepsilon}{dt} = \frac{\mathcal{G}}{L_0} \quad (4)$$

Bu yerda: \mathcal{G} – ipning harakatlanish (cho‘zilish) tezligi, L_0 – bazaviy uzunlik.

Tajribalarda yigirilgan paxta ipining to‘rt xil turi ishlatildi:

- $T=20$ teksli karda sistemasi halqali yigirish usulida olingan paxta ipi, dastlabki taranglik kuchisiz;
- $T=20$ teksli karda sistemasi halqali yigirish usulida olingan paxta ipi, $F=0,5$ cN;
- $T=30$ teksli karda sistemasi halqali yigirish usulida olingan paxta ipi, $F=0,5$ cN;
- $T=20$ teksli qayta tarash sistemasi halqali yigirish usulida olingan paxta ipi, $F=0,5$ cN;
- $T=30$ teksli qayta tarash sistemasi halqali yigirish usulida olingan paxta ipi, $F=0,5$ cN;

Bazaviy uzunlik, L_0 , mm	Tajribalarda ipning cho'zilish tezligi, mm/min										
	100	500	1000	1500	2000	2500	3000	3500	4000	4500	5000
100	0,0166	0,083	0,166	0,25	0,333	0,416	0,45	0,583	0,666	0,75	0,833
200	0,008	0,041	0,083	0,125	0,166	0,208	0,25	0,291	0,333	0,375	0,416
300	0,005	0,027	0,055	0,083	0,111	0,138	0,166	0,194	0,222	0,25	0,277
400	0,004	0,02	0,041	0,062	0,083	0,104	0,125	0,145	0,166	0,187	0,208
500	0,003	0,0166	0,033	0,05	0,066	0,083	0,01	0,116	0,133	0,15	0,166
600	0,0027	0,013	0,027	0,041	0,055	0,069	0,083	0,097	0,111	0,125	0,139
700	0,0023	0,012	0,023	0,035	0,047	0,059	0,071	0,083	0,095	0,107	0,104
800	0,002	0,01	0,02	0,031	0,041	0,052	0,062	0,073	0,083	0,093	0,1

Ipning har bir turi uchun uzilishgacha cho'zilish bo'yicha tajribalar 1-jadvalda keltirilgan shartlarga muvofiq o'tkazildi. Natijada o'tkazilgan sinovlarning umumiy soni 20 mingdan oshdi va ularga ishlov berildi. Bu esa katta hajmdagi eksperimental ma'lumotlarni to'plash imkonini berdi. Qayta ishlangan ma'lumotlar asosida paxta ipining cho'zilish tezligi, bazaviy deformatsiyalanish uzunligi va dastlabki taranglik kuchi kabi omillarning ta'sirini hisobga oluvchi noxiziq xarakteristikalari aniqlandi. Ushbu xususiyatlar ipning turli cho'zilish sharoitlarida mustahkamlik xossalarining o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.


Dastlabki tarangliksiz $T=20$ teks bo'lgan karda sistemasi halqali yigirish usulida olingan ipni uzilguncha cho'zish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijalarini ko'rib chiqamiz. Tajribalar 1-jadvalga muvofiq ipning quyi uchining turli harakat tezliklarida va turli bazaviy uzunliklarida amalga oshirildi. Harakat tezligi va bazaviy uzunlikning ayrim qiymatlarida deformatsiyalanish tezligi bir xil bo'ladi. Bunday holatlar tajribalarning takrorlanishi hisobiga ro'y beradi.

Tajriba natijalari uzish mashinasi tomonidan avtomatik ravishda $F(\varepsilon)$ grafiklar shaklida taqdim qilinadi, bu yerda F – tortuvchi kuch, ε – nisbiy deformatsiya.


Uzish mashinasida ipni uzilishgacha cho'zish bo'yicha tajribalar takroriyliigi 50 marta. «Tenso-Master» uzish mashinasining dasturiy ta'minoti o'zida eksperimental ma'lumotlarni statistik qayta ishlashni amalga oshiradi va statistik qayta ishlashning kutilayotgan qiymati, o'rtacha og'ish, dispersiya va boshqa natijalarini avtomatik ravishda chop etadi. Bu ma'lumotlarga ko'ra tajriba xatolari 5% dan oshmaydi, ya'ni eksperimental ma'lumotlarning ishonchliligi 95% ni tashkil etadi, shuning uchun bu yerda statistik ishlov berishning batafsil ma'lumotlari berilmaydi.

1-rasmda $T=20$ teksli karda sistemasi halqali yigirish usulida ishlab chiqarilgan paxta ipi uchun dastlabki tarangliksiz olingan cho'zilish diagrammasi keltirilgan, bunda $\mathcal{G}=100$ mm/min, $L_0=800$ mm, $\varepsilon_g=0,002$ s⁻¹. Ushbu variant 1-jadvalda ko'rsatilgan eng past deformatsiya tezligiga tegishli. Diagrammadagi tik chiziqlar ipning uzilish nuqtalarini ifodalaydi. Tajribalar bir xil sharoitda, bir xil ip bilan 50 marta takrorlangan. Ipning notekisligi uning uzunligi bo'yicha turlicha bo'lganligi sababli iplar har xil ε_k ko'rsatkichlarda uzilgan.

Bazaviy uzunlik qiymatining $L_0 = 800$ mm dan $L_0 = 100$ mm gacha kamayishi diagrammadagi umumiy ko‘rinishini o‘zgartirmaydi (2-rasm). Biroq, bu holda $F(\varepsilon)$ egri chiziqlarining tebranishi kuchayadi. Bu hodisa qisqichlarda ipning mikro darajada sirpanishi bilan bog‘liq.




1-rasm. Karda sistemasi halqali usulda yigirilgan paxta ipi uchun tajribadan olingan $F(\varepsilon)$ diagrammalar $G = 100$ mm/min, $L_0 = 800$ mm, $T = 20$ teks, $\varepsilon_g = 0,002$ s⁻¹



2-rasm. Karda sistemasi halqali usulda yigirilgan paxta ipi uchun tajribadan olingan $F(\varepsilon)$ diagrammalar $G = 100$ mm/min, $L_0 = 100$ mm, $T = 20$ teks, $\varepsilon_g = 0,0166$ s⁻¹


Bazaviy uzunlik 8 marta kamaytirilganda, deformatsiya tezligi 8,3 marta ortdi, bu esa ipning uzilish paytidagi maksimal uzilish kuchi F_k qiymatining 220 cN dan 250 cN gacha ko‘tarilishiga olib keladi.



3-rasm. Karda sistemasi halqali usulda yigirilgan paxta ipi uchun tajribadan olingan $F(\varepsilon)$ diagrammalar $G = 5000$ mm/min, $L_0 = 100$ mm, $T = 20$ teks, $\varepsilon_g = 0,833$ s⁻¹

Bunda kritik deformatsiya ε_k bir xil oraliqda o‘zgaradi. Uzilish kuchi qiymatining ortishi deformatsiya tezligining ta’siri bilan izohlanadi.

3-rasmda deformatsiya tezligi $\varepsilon_g = 0,833$ s⁻¹ ni tashkil etadi. Bu tajribalar seriyasidagi eng katta natija hisoblanadi (1-jadval). Ipning harakat tezligi 100 mm/min dan 5000 mm/min gacha oshishi, kritik kuch F_k qiymatining ortishiga olib keladi. 1, 2-rasmlar bilan solishtirganda 13,6% va 22% ga katta. Bu yerda ipning uzilish paytidagi kritik deformatsiya qiymatining kamayishi kuzatiladi. $L_0 = 100$ mm bo‘lganda, ayrim



4-rasm. Karda sistemasi halqali yigirish usulida olingan paxta ipi uchun deformatsiya modullarining harakat tezliklari \mathcal{G} va L_0 bazaviy uzunliklarga bog‘liqlik diagrammasi


mexanik xususiyatlariga ta’sir etadi. Bularning eng muhimi deformatsiya modulidir (elastiklik moduli, qovushoq-elastiklik moduli va plastiklik moduli birgalikda). 4-rasmda $T=20$ tekis karda sistemasi halqali usulda yigirilgan paxta ipining deformatsiya modullarining harakat tezligi va L_0 bazaviy uzunliklarga bog‘liqlik grafiklari keltirilgan. Ipnining deformatsiyalanish moduli dastlabki $E=E_N$ qiymatdan boshlab, ε deformatsiya ortishi bilan $\varepsilon = \varepsilon_N$ avval tez sur’atda ko‘tariladi, so‘ngra deformatsiyaning $\varepsilon = \varepsilon_e$ ma’lum bir qiymatidan boshlab asta-sekin pasayib boradi. Ipnining harakat tezligi past bo‘lganda $\mathcal{G}=100$ mm/min (qora chiziq) $E(\varepsilon)$ bog‘liqlikda «botiqlik» kuzatilmaydi. Harakat tezligi $\mathcal{G}=500$ mm/min gacha oshganda, «botiqlik» paydo bo‘ladi (qizil chiziq). Keyinchalik ipning harakat tezligi 500 mm/min dan 5000 mm/min gacha oshishi (4-rasm), «botiqlik» ning deyarli uch barobar oshishiga olib keladi. Eng katta «botiqlik» $\mathcal{G}=5000$ mm/min tezlikda kuzatiladi (kulrang shtrix chiziq). Deformatsiya qiymati $\varepsilon=0,03$ yoki 3% ga yetganda, deformatsiya modulining qiymati barqarorlashadi. 4-rasmda ko‘rsatilganidek, E modulning qiymatlari, kutilganidek, ip harakat tezligi oshishi bilan ortib boradi. Bu shundan dalolat beradiki, ip cho‘zilish tezligi oshishi bilan uning deformatsiya xususiyatlari o‘zgaradi, bu esa E deformatsiya modulining ortishida o‘z aksini topadi. Bundan tashqari 1-jadvalda ko‘rsatilgandek past harakat tezliklari uchun E modul deformatsiya qiymati minimal, yuqori tezliklar uchun ular maksimal qiymatga yetadi.

Ushbu ishning 2-bo‘limida keltirilgan keng ko‘lamli tajriba tadqiqotlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, ip deformatsiyasi chiziqlaridagi «botiqlik» hodisasi bir nechta omillarga bog‘liq: a) deformatsiya tezligi va b) ipning dastlabki tarangligi. Bu esa

tajribalarda kritik deformatsiya qiymati pasayadi. Ehtimol, bu ip uzunligi bo‘ylab cho‘zuvchi kuchning tarqalishi va o‘rnatilishi jarayoni bilan bog‘liqdir, chunki qisqa iplarda to‘lqinli jarayon tezroq kechadi. Bu masalani ipning uzilish jarayonini matematik modellashtirish usullari yordamida nazariy jihatdan tadqiq etish orqali aniqlashtirish mumkin. Yuqorida ta’kidlanganidek, cho‘zilish jarayonida paxta tolalaridan tashkil topgan ipning murakkab tuzilishi o‘zgaradi, bu esa o‘z navbatida uning fizik-

«botiqlik» kabi hodisalar tasodifiy emas, balki ma’lum sinov sharoitlari bilan bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi. Bu nazariy modellarni tuzishda muhim ahamiyatga ega. Bizning tajribalarimizda qo‘llanilgan "Tenso Master" uzish mashinasida ipning yuqori harakat tezligiga erishib bo‘lmaydi. Biroq, hatto 5 m/min (5000 mm/min) tezlikda ham $E(\varepsilon)$ bog‘liqliklarda «botiqlik» kuzatiladi.

Ip uzilishiga olib keladigan kritik kuch uning cho‘zilish jarayonidagi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Biroq, ipning harakatlanish tezligi yoki deformatsiyalanish tezligining ushbu ko‘rsatkichga ta’siri hozirga qadar yetarlicha o‘rganilmagan. Ipning, xususan paxta ipining cho‘zilish diagrammalariga deformatsiyalanish tezligining ta’sirini o‘rganishga qaratilgan tajribaviy va nazariy tadqiqotlar jahon ilmiy adabiyotida deyarli uchramaydi. Ipning uzilish jarayonini keyingi nazariy tadqiqotlari uchun deformatsiyalanish tezligining uzilish sodir bo‘ladigan kritik kuch qiymatiga ta’siri qonuniyatlarini aniqlash juda muhimdir. Bu qonuniyatlarni tushunish haqiqiy texnologik sharoitlarda ipning xatti-harakati va xususiyatlarini aniq modellashtirish imkonini beradi.



5-rasm. $T=20$ tekсли karda sistemasi halqali usulda yigirilgan paxta ipi uchun kritik kuchni harakat tezliklari \mathcal{G} va L_0 bazaviy uzunliklarga bog‘liqlik diagrammasi

5-rasmda paxta ipining uzilishiga olib keladigan kuchga ip harakatlanish tezligi va bazaviy uzunlikning ta’sir qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan tajriba sinovlari natijalari taqdim etilgan.


Deformatsiyaning bazaviy uzunligi L_0 ortishi bilan deformatsiyalanish tezligi pasayadi (1-jadval). Bu esa kritik kuch F_K qiymatlarining pasayishiga olib keladi. Demak, boshqa sharoitlar o‘zgarmas qolganda, deformatsiyalanish ortishi bilan ip uzilishidan oldin kamroq cho‘zuvchi kuchga duch keladi. Shu bilan birga, ipning deformatsiyalanish tezligi o‘zgarganda kritik kuch F_K qiymatlari oshadi. Bu oshish, ayniqsa ip harakati past tezlikda bo‘lganda, deformatsiyalanish tezligining oshishi ipning mustahkamligiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatganda yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Paxta ipining uzilish jarayonini nazariy o‘rganish uchun ushbu ishning birinchi bo‘limida keltirilgan noxiziq deformatsiya va uzilishning matematik model


tenglamalaridan foydalanish juda muhimdir. Buning uchun ipning deformatsiya modullarining deformatsiya tezligiga bog‘liq ravishda o‘zgarishi haqidagi tajriba ma’lumotlari juda muhim ahamiyatga ega. Bu ma’lumotlar ipning cho‘zilishi va uzilishi jarayonida sodir bo‘ladigan jarayonlarni aniq modellashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Deformatsiya tezligining ip uzilishiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan kompleks tajriba tadqiqotlari ipning turli deformatsiya tezliklaridagi xatti-harakatini belgilaydigan asosiy qonuniyatlarni aniqlash imkonini berdi. Bu natijalar keyingi nazariy tahlil va tezlikning ipning mustahkamlik xususiyatlariga va cho‘zilish sharoitida uzilishga moyilligiga ta’sirini hisobga oladigan aniqroq modellarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ldi.

6-rasmdan ko‘rinib turibdiki, deformatsiya modullarining deformatsiya tezligiga bog‘liqligi ma’lumotlarning sezilarli darajada tarqoqligi bilan tavsiflanadi. Bu holat dastlabki tajriba diagrammalaridagi $F(\varepsilon)$ ma’lumotlarning keng tarqoqligi bilan izohlanadi. Shu sababli, 6-rasmda keltirilgan ushbu murakkab egri chiziqlarni o‘rtachasini olish zaruriyati paydo bo‘ladi. Grafiklarni o‘rtachalari natijasi 7-rasmda aks ettirilgan.



6-rasm. Turli xil paxta iplarining deformatsiya moduli va deformatsiyalanish tezligi o‘rtasidagi tajribaviy bog‘lanishlar



7-rasm. Turli xil paxta iplarining deformatsiya modullarining deformatsiyalanish tezligiga bog‘liq o‘rtacha qiymatlari

Dastlabki taranglashning ta’siri kritik kuchning o‘zgarishida ham, ipning deformatsiyalanish modulining o‘zgarishida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Odatda, dastlabki taranglikni oshirish ipning mustahkamlik xususiyatlarini yaxshilashga olib keladi. Bu holat ip tarangligini nazorat qilish muhim bo‘lgan texnologik jarayonlarni loyihalashda e’tiborga olinishi lozim. Mazkur omil ipning cho‘zilish va uzilishdagi xatti-harakatiga ta’sir qilgani sababli, nazariy modellarni tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi. 7-rasmdagi barcha chiziqlardan pastroqda joylashgan ko‘k chiziq dastlabki tarangliksiz, $T=20$ teks bo‘lgan karda sistemasi halqali yigirish usulida olingan ipga tegishlidir. Qizil chiziq esa xuddi shu ipning dastlabki taranglik kuchi ta’siridagi ma’lumotlarini ifodalaydi. Ko‘rinib turibdiki, bu chiziqlarda deformatsiya modulining qiymatlari taxminan ikki barobar farq qiladi.

Qayta tarash-halqali usulida yigirilgan ip karda-halqali ipga nisbatan deformatsiya modullarining biroz kichikroq qiymatlarini namoyon etadi (grafikdagi qora va yashil chiziq). Qayta tarash ipi mustahkamroq hisoblanishiga qaramay, uning deformatsiya moduli deformatsiyalanish tezligiga kamroq bog‘liq bo‘ladi (qora chiziq). Bu hodisa uning yuqori elastikligi bilan bog‘liq, ya’ni cho‘zuvchi kuchlar ta’sir etganda boshqa turdagi iplarga nisbatan kamroq o‘zgarish bilan dastlabki holatiga qaytadi. 7-rasmda ko‘rsatilganidek, bir xil parametrlarda qayta tarash va karda sistemasi halqali yigirish usulida olingan iplarning deformatsiya modullarining boshlang‘ich qiymatlari bir-biriga yaqin (qora va qizil chiziq). Biroq, o‘xshash boshlang‘ich qiymatlarga qaramay, cho‘zilishdagi xatti-harakatlar farqi bu ip turlarining tuzilishidagi farqlar bilan bog‘liq. Bu farqlar ularning elastiklik va cho‘zilish tezligi o‘zgarganda deformatsiyaga moyillik kabi mexanik xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Ipnning chiziqli zichligi ortishi deformatsiya moduli qiymatlarining ortishiga olib keladi. Bu holat yashil chiziq (qayta tarash) va to‘q sariq chiziq (karda) orqali ifodalangan.

7-rasmda keltirilgan tajriba natijalari asosida dinamik deb qabul qilingan $\varepsilon_g = 0,833s^{-1}$ deformatsiyalanish tezligidagi deformatsiya moduli E_D ning, statik deb qabul qilingan $\varepsilon_v = 0,002s^{-1}$ deformatsiyalanish tezligidagi deformatsiya moduli E_S ga nisbatini aniqlaymiz. Bu qiymatlarning natijalari 7-rasmga muvofiq 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Deformatsiyalanish tezligiga bog‘liq ravishda deformatsiya modullarining tajribaviy qiymatlari


Yigirilgan ip	E_S, N	E_D, N	E_D / E_S
Karda sistemasi halqali usulda yigirilgan paxta ipi $T=20$ teks	32	60	1,875
Karda sistemasi halqali usulda yigirilgan paxta ipi $T=20$ teks $F_N = 0,5$ cN	53.5	127	2,374
Qayta tarash sistemasi halqali usulda yigirilgan paxta ipi $T=20$ teks $F_N = 0,5$ cN	53	100	1,887
Karda sistemasi halqali yigirish usulida yigirilgan paxta ipi $T=30$ teks $F_N = 0,5$ cN	60	101	1,683
Qayta tarash sistemasi halqali usulda yigirilgan paxta ipi $T=30$ teks $F_N = 0,5$ cN	59	112	1,898

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajribalarda berilgan deformatsiya tezliklarida (1-jadval) E_D/E_S , ya’ni dinamik deformatsiya modulining statik deformatsiya moduliga nisbati taxminan 1,5 dan 2,5 gacha o‘zgaradi. Bu qiymatlar to‘liq maqbul bo‘lib, paxta ipiga o‘xshash materiallar uchun xos bo‘lgan diapazonga mos keladi. Bu esa olingan natijalar shu turdagi materiallar uchun kutilishi mumkin bo‘lgan chegaralar doirasida

ekanligini tasdiqlaydi va bu o'z navbatida keyingi nazariy va amaliy xulosalarning to'g'riligini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning «**Ishlab chiqilgan matematik modeli asosida paxta iplarining nohiziq deformatsiyalanishi cho'zilishi va uzilish jarayonlarini sonli tadqiq etish**» deb nomlangan uchinchi bobida «Tenso Master» qurilmasida ipning mustahkamligini sinash sxemasiga asoslanib, tajriba qo'yilishiga mos keladigan nazariy masalaning hisoblash sxemasi tanlandi. Paxta iplarining mustahkamligi va uzilishining nohiziq nazariyasi uchun ishlab chiqilgan matematik modelga muvofiq to'liqin masalasi qo'yildi. Ko'rib chiqilayotgan chegaraviy masalaning chegaraviy shartlari tanlanib, asoslandi. Masalani sonli yechish uchun algoritmlar va dastur tuzildi hamda ular EHMda amalga oshirildi.

Paxta iplarining geometrik va mexanik xususiyatlariga bog'liq holda, ip uzunligi bo'ylab, vaqt davomida cho'zuvchi kuch, deformatsiya hamda tezlikning o'zgarishini aniqlash uchun bir qator sonli hisob-kitoblar o'tkazildi. Olingan ma'lumotlar ishlab chiqilgan matematik modelni qo'llagan holda ipning cho'zilishdagi deformatsiyalanishi bo'yicha ketma-ket raqamli tajribalar o'tkazish imkonini beradi. Bunday raqamli tajribalar ipning turli cho'zilish sharoitlaridagi xatti-harakatini yanada




8-rasm. «Tenso Master» uskunasi paxta ipining uzilishgacha cho'zilishini hisoblash sxemasi

aniqroq o'rganishga, shuningdek, deformatsiyalanish tezligi va dastlabki taranglik kabi asosiy omillarning uning mustahkamlik xususiyatlari hamda uzilishiga ta'sirini baholashga yordam beradi.

8-rasmda «Tenso Master» qurilmasida F cho'zuvchi kuch ta'sirida ipning cho'zilish sxemasi keltirilgan. A qismi maxsus zajemlar orqali harakatsiz holga to'g'rilanadi. Ipning pastki qismi Bga cho'zish kuchi F ta'sir qiladi va uning natijasida bu qism OX o'qida harakatlanadi.

Umumiy cho'zish uzunligi L 1 metrga teng va o'zgarmas qiymatga ega. Bazaviy cho'zish uzunligi L_0 esa o'zgaruvchan qiymat bo'lib, $10 \div 80$ sm oraliqda o'zgaradi (jadval 1). Cho'zish kuchi ta'sirida ip cho'zila boshlaydi va ipning uchiga qo'yilgan kuch ip uzunligi bo'ylab tarqaladi.



**9-rasm. «Tenso Master»
qurilmasida ip cho‘zish
jarayoniga mos keladigan to‘lqinli
tasvir**

9-rasmda to‘lqinli jarayonga mos keluvchi to‘lqin ko‘rinishi ko‘rsatilgan. F kuch ta‘sirida $x = 0, t = 0$, nuqtadan boshlab, ipning pastki qismi (B nuqtasi)ga X o‘qi bilan ustma ust va qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlantiruvchi kuch ta‘sir qiladi. To‘lqin F kuchi ta‘sirida paydo bo‘ladi va ip bo‘ylab tarqaladi. Bu to‘lqin ipning yuqori nuqtasiga (A nuqta) yetib borganda, unda aks etadi. Aks etgan to‘lqin ham ip orqali tarqalib, ipning pastki nuqtasi (B nuqta)ga yetib borganda u yerdan yana aks etadi. Bu to‘lqin jarayoni bir necha bor takrorlanadi. Bunda tx xarakteristik tekisligida kuchsiz uzilish chiziqlariga mos keladigan ko‘plab to‘lqin frontlari hosil bo‘ladi. Ushbu to‘lqin frontlari uzilish chiziqlari orqali

